

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MAHALLIY TARIXIY MATERIALLAR VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIIYALASH

Kosbergenov Raxat Maxsetbaevich,
Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170788>

Har bir oilada o‘ziga xos an’analar mavjud. Bu an’analar bolaning ongiga, xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Masalan, oila a’zolarining tug‘ilgan kunlarini o‘tkazish, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish va hokazo. Eng muhimi otionalarning hurmatini farzand doimo sezib turishi kerak.

Shu o‘rinda farzandlarga oilaviy shajarani tuzish bo‘yicha mustaqil ishni topshirish maqsadga muvofiq.

Bu bejizga emas. Chingiz Aytmatov bolalik paytlarini eslab, nuroniylar to‘y-tomoshalarda bolalardan etti bobosining nomini aytib berishini so‘raganliklarini qayd etib, shu yo‘sinda yosh avlod qalbida avlo-ajdod, qon-qardoshlik tushunchalari singdirib borilganini xulosa qiladi. [1,101]

Ma’lumki, “shajara”- arabcha so‘z bo‘lib, “daraxt” degan ma’noni anglatadi. Arablar o‘zlarining ota shajaralarini daraxtga va uning shoxlariga qiyoslashgan, daraxt uch qismga-tana, shox va shoxchaga bo‘lingani sababli, arablarning ota shajaralari ham uch qismga-nasl (aniqrog‘i, millat), toifa (qabila) va uruqqa bo‘lingan. Bunga misol qilib, payg‘ambarimiz Muhammad (SAV)ning ota shajarasini ko‘rsatish mumkin. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” asarida aytilishicha: “Payg‘ambarimizning o‘zlari arab naslidan, Quraysh qabilasi, Bani Hoshim urug‘idan bo‘lib, otalari Abdulloh, uning otasi Abdulmutallib, uning otasi Hoshim, uning otasi Abdulmanof....., o‘n binichi otalari Quraysh, yigirma birinchi otalari Adnondur.... Payg‘ambarimizning yuqoridagi otalari Ibrohim Xalilullohdur”. [2,14]

Fanda shajarani o‘rganish-“geneologiya”, ya’ni kishilarning kelib chiqishi, o‘tgan avlodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmuini anglatadi.

“Og‘zaki yoki yozma shaklda otadan bolaga o‘tib kelgan va har bir kishining etti otasidan boshlab, toki uning etmish etti otasigacha bo‘lgan otalarini bir-biriga bog‘lab, ketma-ketdikda, uzviylikda, birini ikkinchisidan keltirib chiqarib, shulardan o‘rgigan (tug‘ilgan), urchigan (ko‘paygan), unib-o‘sgan urpoq (avlod)larning og‘a- ini, qarindosh hamda eldoshlarning bir-biriga borib qo‘shilishiga va o‘sha otalardan birining nomi bilan, ba’zan laqab oti bilan, ba’zan tamg‘asining nomi bilan, ba’zan umumiy bir etnik nom bilan atalishiga ota shajara deyiladi.” [3,16]

Shajarani tuza olish, ya'ni “7 pusht” (farzand, nyevara, chyevara, yevara, duvara, ovora, begona)ni bilish- yoshlarda o‘z ajdodlari. sulolasi, ota-onasi bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘u yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning muhim omilidir. O‘z shajarasini bilgan yoshlarda xotira bo‘ladi. Xotirasi bo‘lgan yoshlar irodali bo‘lishadiva aslo turli yot yo‘llarga kirib ketib, vataniga, xalqiga xiyonat qilmaydi. Ayrim yoshlar, shajara u yoqda tursin, o‘z oilasidan naryog‘ini bilmaydi, pasportiga millati yozilgani uchun men shu millatning vakiliman, deydi. Shajarani bilishning ahamiyatini yanada teran tushunish uchun ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan etakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi so‘zini keltirish joiz: “Qabilasining ismini va etti otasining otini bilmay turg‘onlarni qul-marquq derlar.” [4,194-195]

Oilaviy shajarani tuzishni ommalashtirishda OTMlarining tarix fani o‘qituvchilari tashabbuskor bo‘lishlari lozim, chunki tarix fani nafaqat davlatlar, balki insoniyatning kelib chiqishi, oilalarning paydo bo‘lish tarixini ham o‘rganadi.

Yuqorida farzandlarga vatanparvarlik ruhini singdirishda oilaning barcha a‘zolari, ayniqsa ota-ona ma’rifatli bo‘lmog‘iga urg‘u bergan edik, shu o‘rinda mamlakatimizda oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish va rag‘batlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar juda o‘rinli. Bolalarga mamlakatimiz tarixi haqida badiiy adabiyotning ta’siri juda katta ekanligini qo‘yidagi xulosalarda anglashimiz mumkin:

- buyuk ajdodlarimizning boy va takrorlanmas merosidan bahramand bo‘linadi;
- milliy o‘zligini teran anglay olishi uchun zarur bilimga ega bo‘linadi;
- asrlar mobaynida millatimizga xos bo‘lgan mehnatsyevarlik, axloq-odob, jasurlik, qahramonlik, insonparvarlik, e’tiqod kabi qadriyatlar ongu-shuuriga tezroq singadi;

Shuningdek, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlikni aks ettirgan “Alpomish”, “Ravshan”, “Shiroq”, “Tumaris” kabi asarlar, qadimdan xalqlarimizning kundalik turmushida rioya qiladigan odob-axloqni ko‘rsatuvchi pandnoma ruhidagi “Saddi Iskandariy” “Qutadg‘u bilik” kabi asarlar Bo‘lajak o‘qituvchiga millatimizning buyuk o‘tmishi, merosi, turmush tarzi, o‘z vatani uchun jonini ham ayamagan ajdodlarimiz to‘g‘risida ta’sirli ma’lumot bera oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga yoshlikdan aytilgan ertak va dostonlardagi obrazlar har bir bolaning jismonan baquvvat, botir, qo‘rqmas, shijoatli va eng muhimi o‘z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lib ulg‘ayishida juda muhim omil hisoblanadi. To‘marisning: “Kimki dushman nayrangiga duchor bo‘lsa, halok bo‘ladi, kimki ona Vatan mehr-muhabbatini diliga tugib dushmanga qarshi mardonavor kurahsa g‘alaba qozonadi”, degan hayqirig‘iga mos ibratli g‘oyalar ajdodlarimiz yuragini zabt etgan. Shiroq o‘z jonidan kechib, Doroning katta qo‘shinini suvsiz

sahroga etaklab, mag‘lub etadiki, buni tarix unutgan emas. Spitamen: “Sen Iskandarga qarshi mardona kurashga asos qo‘yding. Sening noming kelajak avlodlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi. Bir yildan so‘ng yuzta Spitamen chiqadi, o‘n yildan so‘ng Spitamen mingtaga etadi. Yuz yildan so‘ng o‘n minglab Spitamen bosh ko‘taradi. Sen tashlagan bitta urug‘dan ko‘plab, hadsiz hisobsiz nihollar tug‘iladi. Ular ham yangi hosil beradi va nihoyat, ertami-kechmi dushman munosib jazosini oladi. Buyuk ishlar bir zumda amalga oshib ketmaydi. Hujum qil! Kurash! Lozim bo‘lganda orqaga chekin. Ammo nima uchun kurashayotganiningni unutma.” [5, 156] Tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari haqida xalq pedagogikasining manbaalarida juda ko‘p misollar keltirilgan. Jumladan, namuna ko‘rsatish, tushuntirish, tilak-istak bildirish, undash, ma‘qullash, olqishlash, ta‘qiqlash, koyish, ta‘na (gina) qilish, qo‘rqitish, kaltaklash va hokazo. [6,87]

Ammo tadqiqotlarimizda Bo‘lajak o‘qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ibrat, ko‘rsatish, vaziyat orqali tarbiyalash, ma‘qullash va maqtash, mukofotlash, munosabat orqali tarbiyalash kabi metodlar ko‘proq samara berdi. Aholining turmush tarzi, o‘z-o‘zini himoya qila olishi xalq o‘yinlarida ham o‘z aksini topgan. Bolalarga ushbu o‘yinlarni o‘rgatish orqali jismoniy kuchli qilish bilan birgalikda metin irodali, o‘z kuchiga ishonish kabi malakalarni shakllantiramiz. Misol uchun, “Quvlamachiq”, “Bekinmashiq”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Chavandoz”, “Chillak”, “Chaqqonlar va merganlar” kabi o‘yinlar ularni kelgusida sergak, chaqqon va jangovar qilib tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi. Xalqimizning kiyinish madaniyati, pazandalik, alla aytish san‘ati, milliy kuylar va cholg‘u asboblardan foydalanishi, kashta, do‘ppi, qiyiq tikish kabi urf-odatlar ham oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Demak, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kundagi pedagogika fani oldida turgan o‘ta muhim masaladir. Shu ma‘noda O.Musurmonovning ilmiy ishlari diqqatga sazovor, uning ta‘kidlashicha “... shaxsning ichki ma‘naviy dunyosi- ma‘naviy ehtiyoj, ma‘naviy qiziqish, ma‘naviy faoliyat va ma‘naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iborat.”[7,112]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ma‘naviy ha‘t” jurnali, 2021, № 4 101-bet. “Chingiz Aytmatov ogoxlantiradi” maqolasi.
2. Alixont‘ura So‘guniy. “Tarixi Mu‘hammadiy” Toshkent, 2007, 14-bet.
3. Urokov B. va boshqalar. “U‘zbekning turkman-yuz eli va uning shajarasi” Guliston, “Zi‘e”, 2011.-16 b.
4. Be‘budiy Ma‘mudx‘uja. Tanlangan asarlar. T., 1999, 194-195-bet
5. Il‘osov Yvdat. “Sufdi‘ena” (tarixiy roman). – Toshkent, “Sharq” nashri‘eti, 1994. – B.156.
6. Mavlonova P. va boshq. “Pedagogika”. – Toshkent, “U‘qituvchi”, 2001.
7. Musurmonova O. “U‘qituvchilarning ma‘naviy madaniyatini shakllantirish”. – Toshkent: “Fan”, 1993. – B.112.